

NAVOIY ASARLARIDA INSON QADRI MASALASINING YORITILISHI

Raximov Sherxon

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Yangiariq tuman bo'linmasi mutaxassisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Navoiy asarlarining ahamiyati, Navoiyning jahon tamadduni xazinasiga qo'shgan hissasi, shuningdek, buyuk mutafakkr asarlarida inson va uning qadri-qimmatini, axloqi kabi masalalarning yoritilishi tahlillar asnosida ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Navoiy, mumtoz, jahon, she'riyat, inson, axloq, ijtimoiy, «Xamsa», «Lison ut-tayr».*

O'zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pog'onaga ko'targan genial shoir, mutafakkir Alisher Navoiy o'z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining eng yirik namoyandalari safidan faxrli o'rin egallaydi. Asarlarida hamma davrlar uchun ulkan ahamiyatga molik yuksak gumanistik g'oyalarni katta san'atkorlik bilan tarannum etgan shoir o'z davri ijtimoiy tafakkuri darajasidan yuqori ko'tarilib, ona tilidagi adabiyotni jahon miqyosiga olib chiqdi. U to'rt devondan iborat «Xazoyin ul-maoniy» lirik qulliyoti, besh buyuk dostonni o'z ichiga olgan «Xamsa»si, «Lison ut-tayr», «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlari bilan faqat o'zbek adabiyoti tarixida emas, shu bilan birga, sharq xalqlari adabiyoti tarixida ham yangi sahifalar ochdi. Bu asarlar butun taraqqiyparvar insoniyat ma'naviy-estetik boyligining oltin fondiga aylandi.

Ma'lumki, Navoiyning epik she'riyati shoir ijodiyotida alohida o'rin egallab, uning mashhur «Xamsa» si va «Lison ut-tayr» dostoni jahon adabiyotida badiiy kashfiyotning porloq namunalaridan biri hisoblanadi. Navoiy dostonlarining yaratilishi adabiyotimiz tarixida butun bir davrni - o'zbek klassik epik poeziyasining kamolot davrini tashkil etadi. Chunki mazkur asarlarning maydonga kelishi tasodifiy bir hol bo'lmay, balki qadimiy tarixga ega bo'lgan o'zbek dostonchiligi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida o'zida o'zbek epik poetikasining hamma muvaffaqiyatlarini mujassamlashtiradi.

Navoiyning fikricha, yaratuvchi koinotdan barcha narsa va hodisalarni o'zaro aloqador holda, muayyan maqsadlarni ko'zda tutib vujudga keltirgan. Shu jihatdan qaraganda, tabiat son-sanoqsiz garmoniyalarning bir butun majmuidan iborat bo'lib, undagi ana shu narsa, hodisa va o'zgarishlarning o'zaro uyg'unligi va maqsadga muvofiqligi zaminida bitta umumiy qonuniyat – u ham bo'lsa go'zallik qonuniyati yotadi. Bu Navoiyning olamni tushuntirishga doir boshqalarnikidan ajralib turuvchi o'ziga xos alohida kontseptsiyasidir.

Navoiyning fikricha, tabiat olamining bunday go'zal qilib yaratilishidan ko'zlangan asosiy maqsad inson bo'lib, u er yuzidagi barcha mavjudotlar ichida tengi yo'q bir xilqatdir:

Ofarinisdin qilib inson g'araz,

Oni aylab xalq ichinda baevaz.[2,56]

Umuman, olamning bunyod etilishidan asosiy maqsad Inson ekanligi haqida kontseptsiya Navoiyning deyarlim barcha she`riy va nasriy asarlarida, ayniqsa «Xamsa» da bo`rtib ko`zga tashlanadi.

Shoirning fikricha, olamdagi barcha narsa, hodisa va o`zgarishlarning ijodkori bo`lgan xudo o`zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko`ra ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas.

Sun`ungg`a yuz ofarin, ey kirdikor,
G`ayr yo`q sen, senki derlar oni bor.
Borsen sen, borlig` zebandasi,
Birliku jabborlig` arzandasi.
Sendadur ham birliku ham borlig`.
Haylig`u qodirlig`u g`affurlik`. [2,78]

Navoiy inson axloqidagi «yomon» tomonlar deganda nimalarni ko`zda tutadi? Buning batafsil javobi qushlar va Hudhud munozarasi, ular bilan Hudhud o`rtasidagi savol-javob epizodlarida berilgan.

Navbatdagi savol-javob insof haqida. Bu boradagi Navoiyning fikrlari Hudhud javobida quyidagicha ifoda etilgan:

Odamiyg`a yaxshi ko`p avsof erur,
Lek alarning ashrafi insof erur.
Kimgakim insof yo`q - inson emas.
Munsiz atvorida juz nuqson emas. [2,67]

Shoirning fikricha, kishining o`z nuqsonini tan olishi kelajakda turli xatolarga yo`l qo`ymaslik garovi va asl insoniy kamolot belgisidir. Majoziy usul orqali, xususan, qush tili vositasida badiiy asar yozish Sharq xalqlari adabiyotida qadimiy va murakkab tarixga ega bo`lib, bu xildagi asarlarning dastlabki namunalarini xalq og`zaki ijodida uchratish mumkin.

O`rta osiyolik qomusiy olim Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub «Risalat ut-tayr» asari yozma adabiyotda qush tili vositasida yozilgan falsafiy asarlarning ilk namunasi hisoblanadi. Mazkur asarning maydonga kelishi Sharq xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotida chuqur iz qoldirib, ularda yangi bir an`anani-qush tili orqali falsafiy asar yozish an`anasini boshlab berdi.

Xulosa o`rnida aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy jahon adabiyoti tarixida asarlari chuqur donishmandlik va ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan sug`orilgan buyuk so`z san`atkorlaridan biri sanaladi. Mutafakkir shoirning hayot va Inson haqidagi qarashlari asosan badiiy ijodiyotida murakkab allegoriyalar, simvollar, muayyan nazariy tushunchalarni ifodalovchi obraz-istilohlar vositasida yuksak darajadagi shoirona til bilan ifoda etilgan. Bu sohada ayniqsa uning «Lison ut-tayr» dostoni o`ziga xos alohida o`rin egallaydi. Navoiy bu dostonni yozishda Yaqin va O`rta Sharq xalqlari adabiyoti tarixida keng qo`llanib kelingan qush tili bilan asar yozish an`anasiga murojaat qiladi va bu borada katta mahorat ko`rsatib, shu tipdagi asarlarning g`oyaviy-badiiy yuksak namunalaridan birini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A. Tasavvuf istelohlarining qisqacha izohli lug`ati, Xujand, R.Jalil nomidagi Davlat nashriyoti, 1997.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami, Yigirma tomlik. XII tom. Lison ut-tayr. 1999
3. Qayumov A. «Hayrat ul-abror» talqini. Toshkent, 1970
4. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. Toshkent, «O`qituvchi», 1997